






## 2022- yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatida jami **1064,1** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning mart oyiga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni,  
2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda**



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 776 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 190 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **118,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **52,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **113,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **104,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **39,8 %**) o'sishidir.




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.04.2021- yil	01.04.2022- yil	
				
	Navoiy viloyati	1586	1776	112,0
	Navoiy sh.	446	496	111,2
	Zarafshon sh.	135	166	123,0
	G'ozg'on sh.	1	4	4,0 m
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	258	296	114,7
	Konimex	33	43	130,3
	Qiziltepa	235	260	110,6
	Navbahor	187	193	103,2
	Nurota	100	124	124,0
	Tomdi	41	39	95,1
	Uchquduq	53	49	92,5
	Xatirchi	97	106	109,3




Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy shahri (27,9 %), Karmana (16,7 %) va Qiziltepa (14,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-mart oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **223,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mart oyiga nisbatan **99,7 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **21,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,7 %**), Qiziltepa tumaniga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,8 %**) va Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,7 %**) to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,8 %** ga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **-2,6** punktni tashkil etdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan **102,2 %** ni tashkil etgan holda **583,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,2 %** ni tashkil etdi yoki **257,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mart oyiga nisbatan **127,3 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **52,0** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 012,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-mart oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 064,1</b>	<b>1 012,1</b>	<b>100,0</b>	<b>52,0</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	222,3	207,0	20,4	15,3	29,5
Zarafshon sh.	264,1	228,8	22,6	35,3	67,9
G'ozg'on sh.	8,3	8,3	0,8		
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	97,9	97,9	9,7	-	-
Konimex	10,4	10,4	1,0	-	-
Qiziltepa	207,3	207,3	20,5	-	-
Navbahor	73,7	73,7	7,3	-	-
Nurota	69,2	69,2	6,8	-	-
Tomdi	6,9	6,9	0,7	-	-
Uchquduq	19,1	19,1	1,9	-	-
Xatirchi	84,9	83,5	8,3	1,4	2,6

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik  
qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2022- yil yanvar-mart oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 83,5 % ni yoki **888,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **223,4** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **583,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 54,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **257,6** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 19,3 % ni tashkil etdi.






**2022- yilning yanvar-mart oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sinh sur‘ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish (mlrd. so‘m)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 064,1</b>	<b>106,6</b>	<b>583,4</b>
Navoiy sh.	222,3	106,2	154,0
Zarafshon sh.	264,1	101,1	106,8
G‘ozg‘on sh.	8,3	170,0	0
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	97,9	112,9	59,5
Konimex	10,4	100,9	6,4
Qiziltepa	207,3	117,3	118,4
Navbahor	73,7	102,5	39,7
Nurota	69,2	100,2	32,7
Tomdi	6,9	106,1	2,9
Uchquduq	19,1	100,5	8,8
Xatirchi	84,9	103,1	54,3

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **19,3 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,7** punktga ko'payib, **61,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **19,5** punktga kamayib, **0,6 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,9 %** ga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,9 %** (**1,2 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **4,5 %** ga kamaydi va **39,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,3 %** ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan **4,9 %** ga ko'paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-mart oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash-tirilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 064,1</b>	<b>888,6</b>	<b>110,2</b>	<b>65,4</b>
Navoiy sh.	222,3	204,5	8,9	8,9
Zarafshon sh.	264,1	186,4	46,2	31,5
G'ozg'on	8,3	8,3	-	-
<i>tumanlar:</i>				-
Karmana	97,9	83,2	12,4	2,3
Konimex	10,4	10,3	0,1	-
Qiziltepa	207,3	166,7	24,2	16,4
Navbahor	73,7	67,7	6,0	-
Nurota	69,2	64,8	3,8	0,7
Tomdi	6,9	5,9	1,1	-
Uchquduq	19,1	16,3	2,8	-
Xatirchi	84,9	74,6	4,7	5,6

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida  
qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar  
qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishining  
jami qurilish ishlariga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush G'ozg'on shahar (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 100,0 % ni yoki **8,2** mlrd. so'm), shuningdek, Konimex tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 98,8 % ni yoki **10,3** mlrd. so'm), Nurota tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 93,6 % ni yoki **64,7** mlrd. so'm) qayd etildi.




Joriy yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 17,5 % ni yoki **46,2** mlrd. so‘m), Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 15,4 % ni yoki **1,1** mlrd. so‘m), Uchquduq tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 14,7 % ni yoki 2,8 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishining jami qurilish ishlariga nisbati, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlariga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Zarafshon shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,9 % ni yoki **31,5** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 7,9 % ni yoki **16,4** mlrd. so‘m), Xatirchi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,5 % ni yoki **5,5** mlrd. so‘m) qayd etildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

(mlrd. so'mda)

Navoiy sh.  
222,3

Zarafshon sh.  
264,1

Qiziltepa t.  
207,3

Xatirchi t.  
84,9

**Ma'lumot uchun:** Qurilish

ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Zarafshon shahri (264,1 mlrd.so'm), Navoiy shahri (222,3 mlrd.so'm), Qiziltepa (207,3 mlrd.so'm) hamda Xatirchi (84,9 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-85-20;  
(79) 223-54-73